

"HALIMA" MUSIQALI SPEKTAKLIDA NUTQIY XARAKTER YARATISH MASALALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17623522>

Kadirov Ramz Turabovich

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori v.b.,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya

O'zbek klassik musiqali dramasi va uning zamonaviy talqinida nutqiy xarakter yaratish masalalariga bag'ishlangan ushbu maqola aynan talaba-aktyorlarda sahna nutqiga oid bilim va ko'nikmalarni takomillashtirishga qaratilgan. Unda qahramon nutqiy xarakterini yaratishdagi badiiy-ijodiy jarayon ma'rifatparvar G'ulom Zafariyning "Halima" musiqali dramasi misolida yoritiladi.

Kalit so'zlar

musiqali drama, klassik asar, zamonaviy talqin, nutqiy xarakter, talaba-aktyor, sahna nutqi, qahramon, ovoz, ohang, rejissyor, aktyor, badiiylik, g'oyaviylik.

ISSUES OF CREATING A SPEECH CHARACTER IN THE MUSICAL PERFORMANCE "HALIMA"

Abstract

This article, devoted to the issues of creating a speech character in the Uzbek classical musical drama and its modern interpretation, is aimed at improving the knowledge and skills of stage speech among student actors. It highlights the artistic and creative process of creating a speech character of a hero using the example of the musical drama "Halima" by the enlightener Ghulom Zafari.

Key words

musical drama, classical work, modern interpretation, speech character, student actor, stage speech, hero, voice, tone, director, actor, artistry, ideology.

O'zbek teatrida sahnalashtirilgan ilk musiqali dramalardan biri bu "Halima" dir. Muallifi ma'rifatparvar G'ulom Zafariy bo'lib, dramaturgiyada janr xususiyatlarini teran anglagan holda, asarga sof milliy ohanglarni singdira olgan. Bir asr avval sahnalashtirilgan spektaklning bugungi zamonaviy teatrdagi talqini g'oyat ijodkorlik talab qiladigan ishdir.

Boisi, davr boshqa, zamon boshqa, turmush tarzi, kundalik mashg'ulotlar boshqa. Bu jihatlarda sahnada qanday jaranglashi va shu bilan birga badiiylik,

g'oyaviylik masalalari ishni ancha murakkablashtiradi. Shunday bo'lsa-da, 2013-2014-o'quv yillarida katta jasorat bilan Bahodir Yo'ldoshev boshchiligida G'ulom Zafariyning "Halima" musiqali dramasi zamonaviy rejissyorlik talqini ustida tadqiqot ishini boshladik. Institut rektori, professor Baxtiyor Sayfullayevning tashabbusi bilan "Diydor" teatr-studiyasida jarayon tashkil etildi.

Bitiruv malakaviy ishi uchun tanlangan spektaklda nutqiy xarakter topish ustida ishlashda e'tibor berilishi shart jihatlaridan asosiysi bu asar nutqida zamon ta'sirini o'rganishdir. Mumtoz asarlarning tili o'zgacha, ularning zamonaviy talqini haqidagi qiziqish bizni O'zbekiston xalq artisti Bahodir Yo'ldoshev badiiy rahbarligidagi "Diydor" teatr-studiyasiga yetaklagan edi. "Halima" diplom himoya spektaklida asar nutqiy xarakterini aniqlashda birgalashib, bosh qotirdik. Bahodir Yo'ldoshev yangicha traktovka, ya'ni "qat'iyatsizlik oqibati" oliy maqsadini vazifa qilib ishlashni taklif etdi. Asarga uning bugungi kun talablariga mos kelmaydigan, "zamonasoz"lik taraflarini olib tashlab, "lavha"lar tarzida yondashdik. Xalq qo'shiqlari, lapar, o'yin va yallalar qo'shildi. Avvaliga fortepianoda, so'ngra dutor sozida jo'rnavozlik qilindi. Dialoglar qayta ko'rib chiqildi. Voqealar qatori tahlil qilinib, oliy g'oya izchilligida qayta yig'ildi. Obrazlar talqini, ularning xarakteri bu kun nuqtayi nazari bilan mushohada etildi. O'ta muhimlarigina saqlab qolindi. Masalan, Ne'matning onasi, Ortiqboyning xizmatkori, masterovoylar, ishchi rollari olib tashlandi. Mutavali va Tabib rollari qo'shib yuborildi. Ortiqboy ayollarining harakatlari faollashtirilib, ularga yana qo'shimcha epizodlar, sahnalar yozildi. Spektaklning birinchi planiga yoshlar sevgisi, ularning o'zaro sodiqligi olib chiqildi. "Qat'iyatsizlik" zamona dardiga aylanmasligi lozim. Aks holda fojearlar ro'y berishi to'xtamasligi haqida ogohlantirildi.

Musiqali drama janrida obrazlar nutqi o'ziga xos ko'rinishlarga ega. Ular qanchalar xilma-xil bo'lmasin, zamirida hamisha drama teatri qonunlari asos, poydevor ekanligi yana bir bor ustoz san'atkor, O'zbekiston xalq artisti Bahodir Yo'ldoshev tomonidan o'z isbotini topdi. "Halima" musiqali diplom spektakli 2013-yili "Seni kuylayman zamondosh" ikkinchi respublika teatr festivalida "Klassik asarlarning zamonaviy rejissyorlik talqini" nominatsiyasi bilan e'tirof etildi.

"Halima" asarining qayta sahnalashtirilishi sahnaviy nutqning boyligi, milliy musiqa ildizining baquvvatligidandir. Asardagi personajlarning nutqiy xarakterlari ham rejissyor traktovkasi bilan uzviy bog'liqligi hammaga ma'lum. "Halima" asarining bosh g'oyasi qat'iyatsizlik deb belgilanishi asar qahramonlarining nutqi, o'y-xayollari, yurish-turishlari, eng asosiysi voqelikka bo'lgan munosabatlarni o'zgartiradi. Demak, asardagi voqealar yechimiga borishda personajlar nutqi monologlar, dialoglar, hatto ommaviy sahnadagi suhbat ham aniqlangan g'oyaga

moslab o'zgartiriladi. "Halima" asari qahramoni tushgan vaziyat – aynan "Qat'iyatsizlik". Halima mana shu qat'iyatsizlikning navbatdagi qurboni.

Mannon Uyg'ur sahnalashtirgan "Halima" spektaklidan uning farqi – shu qat'iyatsizlikni bilib turib, tushunib o'zining o'limiga atrof-muhitni, ularning qat'iyatsizliklari yoshlarni himoya qila olmaganligida deb ayblaydi va zahar ichadi. Aslida, asardagi voqea Ortiqboyning hovlisidagi supada boshlanadi. U xotinlarni chaqirib "yigitlar mardikorlikdan qaytyabdi ekan" degan xabardan xavotirlanib ularga topshiriqlar beradi. Yangi travtovkada biz asarga Halimaning suvga chiqish kartinasini qo'shdik. Chunki asar "kim haqida bo'lsa shu personaj bilan boshlanadi" degan rejissyorlik qonuniga asoslandik. Bu esa Halima uchun tomoshabin ko'z o'ngida o'zining o'y-xayollari, orzu-umidlari, Ne'matjonga bo'lgan tuyg'ulari haqida ular bilan gaplashib olishga imkon yaratdi. Parda ochilishi bilan yosh, go'zal, sho'x, hayotni o'ta sevuvchi, o'z yorini vafodorlik bilan kutayotgan qaqildoq qiz namoyon bo'ladi. Halima shu qadar beg'uborki, o'z sevgisini yashira olmaydi. Spektaklda ishtirok etuvchi jo'rnavoz Yekaterina Abramovaga qarab "Katya opa, vi slishali, moy Ne'mat aka vernyotsya, igray opajon, igray" deb rus tilida murojaat etadi.

Yangi travtovkadagi bu o'zgartirma Halimaning nutqiy xarakteri samimiyligini oshirsa, u endi o'tmishdagi tortinchoq, kamgap, uyatchan, o'ziga ko'p narsani ep ko'rolmaydigan halim qiz o'rniga ustoz Bahodir Yo'ldoshev aytganidek, "bir qop yong'oq shaqir-shuqur qaqildoq qiz"ga aylanadi. O'tgan asrning 20-yillarida qiz bolaning birovni sevaman deyishi fojea bo'lsa, 2013-yildagi qiz bolaning birovni sevaman deyishi bu go'yo oddiy hol. Chunki mavjud jamiyat, tuzum, jamoatchilik, ota-onalar ham bugun buni to'g'ri tushunadilar.

Halimaning 20-yillar odob-axloq qoidalari, nutqiy ohanglarida qoldirib ijro etish esa bugungi kun ohanglaridan uzoqlashtirish bo'lar edi. Ammo Halima o'zbek qizi. Har qancha sevmasin, ota-ona sha'nini, or-nomusini yordan ustun qo'yadi. U o'zligidan, ota-onasidan kecholmaydi. "Ota" kartinasida Ota: Qizim, boy bizni xonavayron qiladi. Agar otang so'zini ikki qilmoqchi bo'lsang ... (tiz cho'kmoqchi bo'ladi) Halima: "Yo'q, otajon, men roziman" deydi. "Qismatim zor aylama" degan ariyani dodlab, orzu-umidlari bilan xayrlashib, kuylab, taqdirga ko'nadi. Bu bilan o'zbek qizlari uchun ota ori zamon tanlamasligi, u zamon bilan bu zamonni hamohang bog'laydi. "Bir qop yong'oq, shaqir-shuqur qaqildoq qiz" tomoshabin ko'z oldida kamgap, hayot zarbasidan gangigan, o'z qaroriga o'zi hayron, dili vayron, yoshi katta qizga aylanadi-qoladi.

"Zahar" kartinasidagi Halima – bu endi boshqa Halima. Uning so'zlarida na quvonch na sho'xlik bor, ko'zlari ich-ichigacha g'am. Undan qutulish chorasini – tabassumli lablarini piyolaga bosib, zaharni go'yo "sharbat" o'rnida sipqorgandek

yutinib, mardlarcha o'lim topadi. Uning ko'zlarida ham Ne'mat bilan birga bo'lish imkoni "o'lim" ekanligini tushungan ma'noli nur porlaydi. "Ketma" ariyasi go'yo "Alla" bo'lib yangraydi. U Ne'matning murdasini, o'z muhabbatini, orzu-umidlarini shu qo'shiq bilan kafanlaydi. Ariyaning avj pardasida Halima jon beradi. Qizlarning "xor"i uning dardini go'yo olamga jar solgandek faryod chekadi, ko'kka ko'taradi. Sahnadagi uy shifti qulab tobutga aylanadi, yigitlar "xor"i ijrochilarining tobutning to'rt tarafiga cho'kkalashlari bilan spektakl tugab, chiroq keskin o'chadi. Halima taqdirining jumboqlari qorong'ulikka singib ketadi, bu qaysi zamonda bo'lmasin, "yoshlarning o'limi" hech qanday izohlar bilan oqlanib bo'lmaydigan fojealigicha qolaveradi deganidir.

Nutqiy xarakterlar topishda har bir obrazning nutqiy xarakterlarini o'ziga xosligini topish jarayoni alohida izlanish talab etadigan ishdir. Asar muhiti, rejissyorning traktovkasi qahramonlar nutqiy xarakterlari yaralishining asosi bo'lib xizmat qiladi. Chunki rolning "mag'zi" shu jihatlardan kelib chiqib topilishi va bu "mag'iz" nutq xarakterini belgilashi haqiqatdir. Ana shu mag'iz asar qahramonlarining nutqini rang-barang bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, asar qahramoni Ne'matjon mardikorlikka Ortiqboyning ukasi o'rniga atay Halimadan nari yursin deb jo'natilgan. Oradan 1 yil 7 oy o'tib Oq podsho taxtdan tushib, uyga qaytishga muvaffaq bo'ladi. Bu sahnada Halima suvga chiqqan joyga kelib, u bilan uchrashadi. Chunki ular mana shu buloq majnuntollari ostida uchrashib yurishgan bo'ladi. Ammo u ancha ulg'aygan, mushohadali, xat tanigan, til o'rgangan, oqu-qorani ko'rgan shaxsga aylangan. Uning gap-so'zlari ham shunga yarasha ulg'aygan. Ortiqboy bilan uchrashuvda o'zini ancha dadil tutadi. Boy unga o'z zavodida mirzalik ishini taklif etib, yana uzoqroqqa jo'natib, Halimaga nazar solganini payqasa-da, ketishga "xo'p" deb, hatto kulishga kuch topadi. Boy o'z otamdek, otamning qiyomatli do'sti deb, bu tuyg'ularni toptay olmaydi. Toptaganda u asar qahramoni bo'la olmasdi. Buni hammamiz yaxshi tushunamiz.

"Bog'" sahnasidagi uchrashuvda Ne'matjon "Boy otam meni Farg'onaga mirzo qilib jo'natayabdi" – deydi. Halima "Yana ayriliqmi" deyishi bilan bog'ning ramzi bo'lib turgan boshlaridagi falak, so'zana – ikkisining boshiga qulaydi. Ular buni tik turib mardona kutib oladilar. Bu esa chin qahramonlarga xos ishdir. O'zimizga yoqmagan narsalarga chap berib yashashga o'rganib qolgan bugungi kun uchun bu hazm qilish qiyin bo'lgan qilmishdir. Ne'mat obrazining talqini avvalgisidan farqli o'laroq voqea-hodisalarni anglaydi. Ich-ichidan qarshi bo'lsada, o'zini bosadi. Istiholali nim kulgu bilan, o'ta xotirjam or-nomusni saqlab gapiradi. Ne'matga xos nutqni paydo qiladi.

Asarning yana bir personaji – bu Ortiqboy. Ortiqboy qanchalar shoshmasin, Halimaga sovchi qo'yishga tortinadi, uyaladi

Ammo mardikorlikdan Ne'matning o'lmay qaytishi uni hamma narsaga, hatto o'z xohish istagiga ham xiyonat qilishga yetaklaydi. Yangi tahlilimizda u rosti bilan "ishq" shaydosi, Halimani sevadi. Orzusi – Halima ham uni sevib qolsa edi. Ammo keyinroq Halimaning sevish-sevmasligi uni qiziqtirmay qo'yadi. Chunki Ne'matning otasi Rahim to'yni tezlataylik degandan boshlab Ortiqboy o'z maqsadiga qanday qilib bo'lsa ham: or-nomus, ishq, do'stlik, otalik, qadrdonlik, qo'shnichilik, hatto o'z xotinlaridan kechib, ularni qaqshatib bo'lsa ham Halimaga erishish rejasini tezlatadi, chunki uning nazdida hamma yaxshi narsa faqat uniki bo'lishi lozim. U hammani, hatto o'z nomusini ham sotadi. Shunda Ortiqboy nutqining asl xarakteri ochiladi. U tez va pichirlab gapiradi. Sotqin odam "voy" holatda qoladi. U o'ta muloyim, yoqimtoy, odob-axloq normalariga nazokat bilan rioya qiluvchi odam – vahshiy, johil qotilga aylanadi. Xoljon xola, Mutavali tabib kabi personajlarni xizmatga soladi. Ularning qo'li bilan ishni boshqaradi.

G'.Zafariy asarida Rahim ota Ortiqboyini pichoq tiqib o'ldiradi. Bizda Halima va Ne'mat tobuti ustida yig'lab, achinib qorong'ulikga singib ketadi. Chunki bu ishlar zamon va makon, vaqt tanlamasligiga ishora edi. Xoljon xola obrazining nutqiy xarakteri haqida alohida to'xtalsak. Xoljon xola 1920-yillar ayollar paranjisi ichida "yaxshi-yomon"ni ko'rib keksaygach, qo'shmachilik bilan shug'ullanuvchi "opovsi"lardan. Yoshlik o'tib kuchsiz bo'lib qolib, o'lim yaqinlashgach, "farishta" bo'lish orzusi tug'ilgan xotin. O'tmishdan kecholmaydi, tirikchilikka aylangan "kasbi"dan boshqa ish qilolmaydi. Shu yorug' dunyoning o'zida "arosat"da qolgan ayol. Achinasan ham, kuyinasan ham, nafratlanasan ham. Xoljon xola o'ta ayyor, pulga o'ch, pul uchun hammani, hamma narsani sotadigan zot. Uning nutqi taqdiridan kelib chiqib, o'ta hiylakor, sermulozamatlik unga "niqob". O'ta hissiyotli, munosabatlari olamni buzadigan darajada yorqin va keng. Keskin vaziyatga tushganida esa o'ta sharttiki, betgachopar, "zaharli chayon"ga aylanadi. Qo'lidagi bugungi zamonaviy "salafan" xaltada mayda-chuyda, qurut, pashmak, chanqovuz, hushtaklar sotib yurib, qizlarni "ovlaydi".

Rejissyor B.Yo'ldoshev Xoljon xolaning nutqini "klounada" janrida gapirtiring deb vazifa berdi. U katta-katta gapirsin, vahimali munosabatlar bersin. Baholash elementlarini o'ta uzoq cho'zib ko'rsin va shunga yarasha gapirsin dedi. Natijada Xoljon xola roli spektakl nutqidan tubdan farq qilib, rang-baranglik paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Xoljon xola tomoshabinlar ko'z o'ngida shu qadar turlanib, tullandiki, uni qarsaklar bilan kutib olishdi. Ammo bizda asardagi boshqa personajlarning nutqiy xarakterini to'laonli yaratishda muammolar kam emas edi. Spektaklda aniq nutqiy xarakter yaratish – sahna asarining sahnaviy nutqini boyitadi, rang-barang bo'lishiga olib keladi. Sahnaviy nutq asarning badiiy yaxlitligini ta'minlovchi omillardan hisoblanadi. Bu borada asar nutqi ustida,

personajlar nutqi ustida alohida ishlash va ansambldagi ularning o'rnini aniq his etish talab etiladi. Badiiy yaxlitlikka erishish borasida hali ancha mehnat qilish zarur edi. Ko'p jihatdan talabalarning tajribalari yetmasligi, amaliy ko'nikmalarning sustligi pand berdi. Chunki rejissyor talabi darajasidagi ijro o'rniga talaba imkoniyati darajasida sahna yechimlari qoldirishga majbur bo'lindi.

So'z ustida ishlashda monolog, dialoglarni klassik asarlar nutqida saqlab qolish istagidan voz kechib, zamonaviy nutq ohanglaridan foydalanishga majbur bo'ldik. Chunki talaba organikasida eski o'zbek tilining element va ohanglari saqlanib qolmaganligi, eski o'zbek tili ohanglari buzilishiga olib borishi klassik asarlardagi sahnaviy nutq me'yorlarining buzilishiga olib keldi. Bugungi kun yoshlarining istalgan til, istalgan sheva, istalgan nutqiy ohang me'yorlarida gaplashishlariga odatlangani klassik asar ustida ishlash jarayonida o'ta muammoli, deyarli hal etib bo'lmas darajada qarama-qarshiliklar tug'dirdi.

Sahnaviy nutq keng fikr, chuqur mulohaza, o'z millatimiz tarixiy ildizlarini aniq bilish, ularga mehr bilan yondashgan ziyolilardagina yaxshi tarbiyalanadi, jaranglaydi, parvoz etadi. Bu muammolarni esa oilaviy muhit ziyosi, maktab o'qituvchilari, ayniqsa, ijtimoiy fanlar ustozlari o'zlarining tilga, nutqqa e'tibori, yoshlarga andoza bo'lishi, oliy o'quv yurtida esa boy tariximiz, adabiyotimiz, ayniqsa, she'riyatimizga murojaat etish ularni lug'at orqali bo'lsa-da, qiynalmasdan tushunish, ijro eta olish malakasiga erishish zarur. Aruz vazni bunga albatta katta yordam berishi aniq.

Bitiruv malakaviy ishi yakunlanib, 2013-yili bo'lib o'tgan "Seni kuylaymiz, zamondosh!" II-Respublika teatr festivalida "Klassik asarlarning zamonaviy rejissyorlik talqini" bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdi. 2014-yili esa Xalqaro teatrlar festivali ishtirokchisiga aylandi. Mana shunday innovatsion yondashuvlarni ijodiy institutlar o'quv jarayonlariga tadbiq etish ta'lim sohasidagi islohotlarning samarali yo'lga qo'yilayotganidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirov R. B.Yo'ldoshev bilan o'tkazilgan suhbat. – Toshkent: O'zDSMI ARM (18/-02), 10-noyabr 2014-yil.;
2. Qodirov R. Rejissura asoslari (O'zbekiston xalq artisti Bahodir Yo'ldoshev ijodi misolida). Monografiya. – Toshkent: Fan va ta'lim nashriyoti, 2015. – 156 b.
3. Kadirov, R. (2025). TARIXIY DRAMALAR SAHNALASHTIRISHDA REJISSYOR BAHODIR NAZAROV YONDASHUVI. *Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi*, (2), 103-108.Xomidov, I. (2025). "HALALA"

SPEKTAKLIDA NUTQIY XARAKTERISTIKA. *Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi*, (2), 545-551.

4. Xomidov, I. (2023). 4-SANOAT INQILOBI DAVRIDA SAHNA NUTQI FANINING ROLI VA KELAJAKDAGI ISTIQBOLLARI. *Oriental Art and Culture*, 4(3), 336-340.

5. Yakubov, B. (2025). TARIXIY SHAXS PORTRETIGA ZAMONAVIY QARASH. *Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi*, (2), 12-16.

6. Xomidov, I. (2024). O 'ZBEK TEATRIDA ADABIY TIL ME'YORLARI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 1(3), 185-188.

7. Rustamov, V., & Umarov, X. (2023). Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va unda insonni qadrlash masalalari. *Oriental Art and Culture*, 4(1), 496-502.

8. Ganieva, E. R. (2022). Genesis and Evolution: From Multi-Part TV Film to TV Series. *International Journal on Integrated Education*, 5(4), 286-290.

9. Rinatovna, E. G. (2024). NATIONAL TELEVISION SERIES OF UZBEKISTAN: ACHIEVEMENTS AND SHORTCOMINGS. *Inter education & global study*, (10), 482-492.

10. Nazarbaevna, Q. A., & Serjanovich, K. S. (2024). The Importance of Scenario in Cultural Events. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4, 259-262.

11. Rinatovna, E. G. (2024). NATIONAL TELEVISION SERIES OF UZBEKISTAN: ACHIEVEMENTS AND SHORTCOMINGS. *Inter education & global study*, (10), 482-492.

12. Yusupalieva, D. K. (2020). Development of mutually beneficial cooperation of Uzbekistan within the SCO. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 5(85), 901-903.

13. Yusupalieva, D. K., & Sodirzhonov, M. M. (2017). Mass media in Uzbekistan: development trends, dynamics and prospects. *Modern Science*, (1), 23-25.

14. Yusupalieva, D. K. (2020). Political role of television in the development of national ideology. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 6(86), 665-667.

15. KADIROV, R. SAHNA NUTQI FANIDA HEMIS PLATFORMASINING AMALIYOTI. O 'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti xabarlari.